

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.02/02.30.12.2019.TAR.45.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI

MURODALIYEV RAXMONALI XAYDARALI O‘G‘LI

**TURK XOQONLIGI DAVRI CHOCH VOHASI
CHORVADORLARI MADANIYATI**

**07.00.06 – Arxeologiya
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Murodaliyev Raxmonali Xaydarali o‘g‘li

Turk xoqonligi davri Choch vohasi

chorvadorlari madaniyati 3

Муродалиев Рахмонали Хайдарали угли

Культура скотоводов Чачского

оазиса в эпоху Тюркского каганата 27

Murodaliyev Rakhmonali Khaydarali ugli

Pastoralist culture of the chach oasis

during the Turkic Khaganate period 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 57

**MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.02/02.30.12.2019.TAR.45.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

MILLIY ARXELOGIYA MARKAZI

MURODALIYEV RAXMONALI XAYDARALI O‘G‘LI

**TURK XOQONLIGI DAVRI CHOCH VOHASI
CHORVADORLARI MADANIYATI**

**07.00.06 – Arxeologiya
(tarix fanlari)**

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Tar818 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Milliy arxeologiya markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.archaeology.uz) hamda «ZiyoNET» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Maqsudov Farhod Alijonovich**
tarix fanlari doktori

Rasmiy opponentlar: **Asqarov Ahmadali Asqarovich**
tarix fanlari doktori, professor, O'zR FA akademigi

Pardayev Muxtorqul Hasanovich
tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot: **Farg'ona davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Milliy arxeologiya markazi huzuridagi tarix fanlari doktori (DSc) va falsafa doktori (PhD) ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/02.30.12.2019.Tar.45.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «5» may kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 81-uy.) Tel.: (99871) 262-64-62, e-mail: uzarchae@academy.uz.

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi kutubxonasi va Fanlar akademiyasi Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin (25-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Ziyolilar ko'chasi, 13-uy. Tel.: (99871) 262-74-58; Faks: (99871) 262-34-41).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 18 » 04 kuni tarqatildi.
(2023 yil « 18 » 04 dagi 1 - raqamli reyestr bayonnomasi)



R. X. Suleymanov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

D. X. Murodova
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, t.f.n., katta ilmiy xodim

A. A. Anarbayev
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv natijasida sodir bo'layotgan madaniy integratsiyaning jadallashuvi sharoitida insoniyat taraqqiyotiga tabiiy va ijtimoiy omillarning ta'siri masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Kishilik jamiyati tarixiga nazar tashlansa, iqlim, suv resurslari, tuproq va o'simlik qoplami, landshaft zonalari va boshqalarda namoyon bo'ladigan «tabiiy sharoitlarning xilma-xilligi», asosan, moddiy ishlab chiqarish turlari va shakllarining adadini, iqtisodiy va madaniy tiplarini, shu bilan birga ishlab chiqarish usullarini belgilab beradi. Choch (Toshkent vohasi) ham Markaziy Osiyo mintaqasida umuminsoniy qadriyatlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan qadimiy tamaddun o'choqlaridan biri bo'lib, uning taraqqiyoti mintaqa xalqlari o'tmishi bilan bog'liq holda kechgan.

Bugungi kunda xorijning yetakchi ilmiy markazlarida Markaziy Osiyo tarixi va arxeologiyasini o'rganishga qaratilgan maxsus loyihalar ustida ish olib borilayotganligi tufayli mintaqa xalqlari tarixi va madaniyatiga doir ko'plab ilmiy yutuqlarga erishilmoqda. Shunga qaramasdan, o'lka chorvadorlari madaniyati hozirga qadar to'lig'icha yoritilmay qolmoqda. Siyosiy kuchlarning manfaatlari to'qnashgan hududda joylashgan Choch tarixiy-madaniy o'lkasi ham xalqaro munosabatlarda muhim o'rin tutgan. Shu nuqtai nazardan, 2009-yilda Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyi nishonlangan. Toshkent vohasi xalqlari tarixi va madaniy merosini saqlab qolish hamda uni yanada rivojlantirish nazarda tutilgan xalqaro anjumanning o'tkazilishi umuminsoniyat sivilizatsiyasida Choch o'lkasining tutgan o'rni naqadar yuqori ekanligini ko'rsatadi.

Arxeologiya izlanishlarida chorvador aholi madaniyati, ko'pincha, mozor-qo'rg'on qazishmalari orqali tadqiq etilib, ko'mish udumi, qabr «tortiq»lari va boshqa topilmalarning tahlili asosida kishilar moddiy-ma'naviy dunyoqarashi to'g'risida xulosalar chiqariladi. Choch vohasi ham muhim hududlardan sanalib, uning ilk o'rta asrlarga oid chorvadorlik madaniyati bo'yicha arxeologik ma'lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish O'zbekiston tarixining noma'lum sahifalarini ochib beradi. Bu borada so'nggi yillarda Toshkent viloyati tog'li tegrasing Chorvoq suv ombori janubi-sharqiy chetidagi qadimiy So'ngak qabristoni topilib, bu yerda Turk xoqonligi davriga tegishli chorvadorlar madaniy majmualari tadqiq etildi. O'tgan asrning 70-yillaridan boshlab har yozgi mavsumda suv ostida yemirilib ketgan qabristonda 40 dan ortiq qabr o'rganilib, mintaqa tarixi va arxeologiyasida muammoli bo'lgan bir qator masalalarga oydinlik kiritildi.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, 2017-yil 17-fevraldagi 2789-son «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2018-yil 19-dekabrda 4068-son «Moddiy-madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarorlari, 2018-yil 16-yanvar 5181-son «Moddiy, madaniy va arxeologiya merosi obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishni takomillashtirish

to'g'risida»gi Farmoni hamda 2019-yil 21-sentabrdagi 792-son «Arxeologik tadqiqotlarni tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi Qarorlarida, 2020-yil 29-oktabrdagi 6097-son «Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi Farmonida¹ belgilangan ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish, xalqimizning boy tarixi, moddiy va madaniy merosini ilmiy o'rganish, targ'ib qilish va boyitib borish kabi vazifalarni ma'lum darajada bajarishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Choch vohasining ko'p asrlik tarixga ega chorvadorlarga taalluqli arxeologik yodgorliklari – mozor-qo'rg'onlar, qoyatosh suratlari va boshqalar arxeolog-tadqiqotchilar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab hudud tarixiga oid ko'plab moddiy madaniyat manbalari to'plandi.

Chorvadorlarga tegishli mozor-qo'rg'onlar va arxeologik artefaktlarni tadqiq etish dastlab o'lkashunoslik xarakteridagi ishlarda² (1876–1917-yillar) sayoz tadqiq etilgan bo'lsa, o'tgan asrning 20-yillaridan ilmiy asosga ega bo'la boshlaydi. Bu davrda M. Y. Masson, A. I. Terenojkin, S. P. Tolstov, G. V. Grigoryev, T. G. Obolduyevalarning tadqiqotlari muhim o'rin tutadi³. Keyinchalik, katta hajmdagi arxeologik materiallarning to'planishi ilmiy tadqiqotlarning metodologik asosini (1950–1991-yillar) takomillashtirishni taqozo etdi. T. R. Agzamxodjayev⁴,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/4751561>; 2017 йил 17 февралдаги “Фанлар академияси фаолияти, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чоратадбирлари тўғрисида”ги Қарори // <https://lex.uz/docs/3117025?ONDATE=18.02.2017%2000>; 2018 йил 19 декабрдаги “Моддий-маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш соҳасидаги фаолиятини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори // <https://lex.uz/docs/4113465>; 2018 йил 16 январь “Моддий маданий ва археология мероси объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланишни такомиллаштириш тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/3506332>; Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 16 февралдаги “Ахсикент археология мероси объектини муҳофаза қилиш ва тадқиқ этиш ёдгорлик мажмуасини ташкил қилиш тўғрисида”ги // <https://lex.uz/uz/docs/3382160>; 2019 йил 21 сентябрдаги 792-сон “Археологик тадқиқотларни тубдан такомиллаштириш тўғрисида”ги Қарорларида // <https://lex.uz/docs/4524476>; 2020 йил 29 октябрдаги 6097-сонли “Илм-фanni 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги Фармони // <https://lex.uz/docs/5073447>.

² Зацепин Д. К. Поездка къ развалинамъ Шаркія // Туркестанския ведомости. 1876. № 24. – С. 3-4 (90-91); Теварихи – Шахрухіе // Туркестанския ведомости. 1876. № 30. – С. 1 (118); Граменицкий Д. М. Заметки о древних урочищах Туркестанского края // Туркестанския ведомости. 1879. № 12. – С. 2 (46).

³ Массон М. Е. Ахангеран (Археолого-топографический очерк). – Ташкент, 1953. – 144 с.; Григорьев Г. В. Отчет о археологической разведке в Янги-Юльском районе УзССР в 1934 г. – Ташкент. 1935.; Тереножкин А. И. Клад андроновских бронзовых предметов из с. Бричмулла близ Ташкента // Советская археология. – Москва. – 1962. – Выпуск 3. – С. 279-280; Тереножкин А. И. Согд и Чач. КСИИМК, вып. XXXIII, 1950; Оболдуева Т. Г. Курганы каунчинской и джунской культуры // КСИИМК, Вып. 23. 1948. – С. 101-102.

⁴ Агзамхожаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины I-VIII вв. н. э. Автореф. канд. дисс. – Ташкент. 1966; Агзамходжаев Т. Раскопки погребальных курганов близ ст. Вревская // ИМКУ, Вып.2. – Ташкент. 1961.

Y. F. Buryakov⁵, X. Duke, K. Alimov⁶, M. I. Filanovich va boshqalarning arxeologik tadqiqotlarida yangi ilmiy-uslubiy xulosalar qilinadi. Mustaqillik yillarida (1991-yildan hozirgi kungacha) esa G. I. Bogomolov⁷, S. R. Baratov⁸, S. R. Piyasova⁹, A. A. Asqarov¹⁰, B. I. Isabekov¹¹ va D. R. Normurodovlar¹² tomonidan olib borilgan arxeologik izlanishlar E. V. Rtveladze¹³, L. S. Baratova¹⁴, A. Musakaeva, G. B. Boboyorov va A. Kubatin¹⁵, F. A. Maqsudov¹⁶,

⁵ Буряков Ю. Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан. 1982. – 140 с; Буряков Ю. Ф., Қосимов М. Р., Ростовцев О. М. Тошкент областининг археологик ёдгорликлари. – Ташкент: Фан. 1975. – 120 б; Буряков Ю. Ф. Историческая топография Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан. 1975. – 204 с; Буряков Ю. Ф. Древний и средневековый город восточного Мавераннахра. – Ташкент: Фан. 1990. – 130 с.; Аминов В., Буряков Ю. Ф., Ходжайов Т.К. Новые данные к этнической истории долины Ахангарана // ИМКУ, Вып.14. – Ташкент. 1978. – С. 79-87.

⁶ Алимов К. и др. Исследования в Ташкентской области // АО в 1975 г. – Москва. 1976; Алимов К. и др. Работы по своду археологических памятников Ташкентского оазиса // АО в 1976 г. – Москва. 1977.

⁷ Богомоллов Г. И. Изображения всадников с городища Канка // ИМКУ, № 20, 1986. – С. 69-79; Богомоллов Г. И. К изучению оссуарного обряда Чача // ИМКУ, Вып. 35. – Ташкент. 1988. – С. 183-193; Богомоллов Г.И. Отражение некоторых мифологических воззрений в раннесредневековой архитектуре Чача и Согда // ИМКУ, Вып. 22. – Ташкент. 1988. – С. 59-66; Богомоллов Г. Городская культура Ташкентского оазиса (античность и раннее средневековье)//O'zbekiston tarixi. 2008, №2, – Б. 31; Богомоллов Г. И., Мусакаева А. А. К вопросу о локализации Тарбанда и его названии // Ташкент: вчера и сегодня. – Тошкент., 2007. – С. 66–77.

⁸ Баратов С. Р. Кавардан шаҳар харобаси // Тошкент воҳаси археологияси (Ўзбек, рус ва инглиз тилларида / ЮНЕСКОнинг молиявий ёрдамида “Тошкентнинг тарихий ва маданий меросини тадқиқ этиш” номи Қатнашув дастури доирасида нашр этилган). – Тошкент. 2010.

⁹ Ильясова С. Р., Максудов Ф. А., Хамидов О. А., Линг Мей, Вульферт Э. Ф., Нормуродов Д. Р. Раскопки на Куюне в 2018-2019 годах // “Археологические исследования в Узбекистане 2018-2019 года” Выпуск -12.– Самарканд-2020.

¹⁰ Аскарлов А. А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи . – Тошкент. 2015; Аскарлов А., Иномов О., Исабеков Б. Комплекс погребальных памятников “Дуланабулак” в верховьях реки Ахангарана и его изучение // Традиции Востока и Запада в античной культуре Средней Азии, – Ташкент, 2010

¹¹ Исабеков Б. И. Қовунчи маданияти этник гуруҳлари Чотқол ва Қурама тоғ чўққиларида // “ЎЗМУ хабарлари” журнали, 2018 йил № ½; Исабеков Б. Ўралитепа диний ибодат мажмуаси // “Олий таълимда ижтимоий-гуманитар фанларни ўқитишнинг долзарб масалалари” мавзусида илмий-амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011; Исабеков Б. И. Древний город на Великом шелковом пути // International journal of discourse on innovation, integration and education. Issue 5. 2020; Исабеков Б. И. Суюрлитепа ёдгорлиги тўғрисида мулохазалар // Ўтмишга назар. № 4. –Тошкент. 2020.

¹² Нормуродов Д. Р. Тошкент воҳасининг қадимги ва ўрта асрлар даври моддий маданияти тарихи (милоддан аввалги XIII – милодий XIII аср бошлари) // Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент, 2020. – 58 б.

¹³ Ртвеладзе Э. В., Лившиц В. А. О монетных чеканах раннесредневекового Чача // У истоков древней культуры Ташкента. – Ташкент. 1982; Ртвеладзе Э. В. История и нумизматика Чача (вторая половина III – середина VIII в н. э.). – Ташкент. 2006; Ртвеладзе Э. В. Ташкент – дорогами истории // San'at, № 2. 2007.

¹⁴ Баратова Л. Новые материалы к истории денежного обращения раннесредневекового Чача // НЦА. III / – Ташкент. 1998; Баратова Л. С. Древнетюркские монеты Средней Азии VI-X вв. (типология, иконография, историческая интерпретация).: Автореф. дис. канд. ист. наук. – Тошкент.: ИВ АН РУз, 1995. С. 26.

¹⁵ Бабаяров Г. Государственный строй Западно-Тюркского каганата. Автореф. док. ист. наук. Ташкент.: ИВ АН РУз, 2012. – С. 24; Бабаяров Г. Чач в эпоху Тюркского Каганата (по нумизматическим данным) // Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. Ташкент, 2005, С. 196-207; Бобоёров Ф. Ўзбек халқи давлатчилиги тарихида Чоч воҳасининг тутган ўрни (Илк ўрта асрлар мисолида) // Ўзбекистонда миллий давлатчилик назариясининг тарихий-фалсафий ва ҳуқуқий асослари. Илмий-назарий мақолалар тўплами. – Тошкент, 2005. – Б. 49-57; Бабаяров Г., Кубатин А. Тамги как источник по истории взаимоотношений Чача и Тохаристана в раннем средневековье (на основе нумизматического материала) // O'zbekiston tarixi, №1. – Ташкент, 2010. – С. 3-4; Бабаяров Г., Кубатин А. К орфографии титула «джабгу» на согдоязычных монетах Чача эпохи Западно-Тюркского каганата // Акад. У. Каримов номидаги ёш шарқшунослар илмий конференцияси тезислари. – Ташкент, 2007. – С. 129-131; Бабаяров Г., Кубатин А. К монетам Чачских правителей тегинов // O'zbekiston moddiy madaniyati tarixi, № 35. Самарканд, 2006. – С. 194-198.

¹⁶ Максудов Ф. Бабаяров Г. К этимологии топонима Чач // Столице Узбекистана Ташкенту 2200 лет. Труды международной научной конференции. – Ташкент. 2009. – С. 199-205

M. M. Xatamova¹⁷ kabi arxeolog, tarixchi va numizmat olimlar tomonidan to'ldirilib, vohaning ilk o'rta asr chorvadorlari bilan bog'liq tarixini yoritilishi ahamiyatlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, Choch hududida bugungi kungacha chorvadorlar madaniyati o'tmishini arxeologik o'rganish ular tomonidan qoldirilgan mozor-qo'rg'onlar va ko'mish udumlariga asoslanib kelingan. Tarixchi manbashunoslar, etnograflar va boshqalarning numizmatik, epigrafik, lingvistik va manbashunoslik izlanishlari esa ularni to'ldirgan.

Shu jihatdan Turk xoqonligi davri Choch vohasi chorvadorlar madaniyatini kompleks o'rganish bugungi kunda O'zbekiston tarixida hali noma'lum bo'lgan bo'shliqlarni yoritishda muhim sanaladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O'zR FA Arxeologik tadqiqotlar institutida ishlangan ПЗ-201709287 «O'rta asrlarda shimoli-sharqiy O'zbekiston tabiiy landshaftlarining o'zlashtirilishi» mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi arxeologik materiallar asosida Turk xoqonligi davri Choch vohasining chorvadorlariga tegishli moddiy madaniyat tarixini ochib berishdan iboratdir.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Choch vohasi chorvadorlari madaniyati bo'yicha olib borilgan arxeologik izlanishlarni tahlil qilish;

So'ngak qabristonida olib borilgan arxeologik izlanishlar asosida Turk xoqonligi davri Choch vohasi chorvadorlarining moddiy va ma'naviy madaniyatini, xususan, hunarmandchiligi, diniy qarashlari va ko'mish udumlaridagi madaniy an'anaviylik va o'zgarishlarni tadqiq etish;

G'arbiy Turk xoqonligi davri Choch vohasining siyosiy va ma'muriy-boshqaruv an'alarini yozma va arxeologik manbalar asosida tadqiq etish;

Choch vohasida Turk xoqonligi davrida kechgan etno-madaniy jarayonlarni, xususan, turklashuv jarayonini arxeologik manbalar asosida tadqiq etish;

Tadqiqotning obyektini Turk xoqonligi davri Choch vohasi chorvadorlari madaniyati tashkil qiladi.

Tadqiqotning predmetini Choch tarixiy-madaniy o'lkasi tog'li tegralarining Turk xoqonligi davri chorvador aholisi o'rnashuv ekologiyasi, turmush tarzi, xo'jaligi, ma'naviy-diniy hayoti tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, diaxron, monoxron, xronologiya, tarixiy-retrospektiv tahlil, mantiqiy-dialektik tahlil

¹⁷ Xatamova M. Turk xoqonligi shaharlari (VI – VIII asrlar). Tarix fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent: ЎЗР ФА ШИ, 2018. – Б. 22; Xatamova M. M. Ilk ўрта asrlarda Чоч хукмдорлигининг тарихий-географик тавсифи (сайёҳ ва элчиларнинг хотиралари асосида) // O'zbekiston ta'rixi. – Toshkent., 2014; Xatamova M. M. Қанқа – Чоч Тегинларининг маркази // Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммолари ёш тадқиқотчилар талқинида. ЎЗР ФА Археология институтида 2013 йил 28 мартда ўтказилган ёш олимлар Республика конференцияси материаллари. – Самарқанд, 2013. – Б.148–154; Xatamova M. M. Ўзбекистон шahарлари VI – VIII asrlarda (Чоч воҳаси мисолида). – Toshkent., 2017. – Б. 132–178; Xatamova M. M. Turk xoqonlarining Чочдаги қароргоҳлари: Жабғуқат ва Хотунқат. Toshkentning 2200 йиллигига // Ўзбекистон тарихи журналі, № 2. 2009. – Б. 3–14.

usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Turk xoqonligi davri Choch vohasi chorvadorlari madaniyatining arxeologik jihatdan o'rganilishi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra "O'lkashunoslik bosqichi" (1876–1917-yy.), "Ilmiy-amaliy izlanishlar bosqichi" (1920–1940-yy.), "Ilmiy asoslangan statsionar izlanishlar bosqichi" (1950–1991-yy.) va "Mustaqillik davri izlanishlari" (1991-yildan buyon) kabi tarixshunoslik masalalari 4 bosqichda ochib berilgan;

Turk xoqonligi davriga kelib, Choch vohasi tekislik hududlarida katakomba qabr turlari yo'qolib ketgani, vohaning tog'li tegralarida esa bu madaniy an'ananing saqlanib qolgani G'arbiy Tangritog' tizmasidagi So'ngak qabristoni misolida isbotlangan;

VII asrning o'rtalaridan G'arbiy Turk xoqonligida sodir bo'la boshlagan siyosiy bosh-boshdoqlik natijasida, Chochdagi tegin va tudun kabi unvonlarga ega shaxslarning siyosiy mustaqillikka intilishi ma'muriy-boshqaruv an'alarida o'rnatilgan tartib-qoidalarning buzilib borganligini anglatishi dalillangan;

Turk xoqonligi davri Choch vohasi chorvadorlari madaniyatidagi ko'mish udumlariga xos bo'lgan balbal shaklidagi tosh haykallarning qiyosiy tahlili asosida bu davrda turklashuv jarayonining jadal kechganligi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Choch vohasining Turk xoqonligi davri chorvadorlari madaniyati masalasi qayta ko'rib chiqilib, bu jarayonlar muallif tomonidan o'rganilgan arxeologik materiallar bilan boyitildi. Choch o'lkasining chorvadorlarga tegishli madaniy meros obyektlaridan ta'lim jarayonida, shuningdek, tashqi va ichki turizmni rivojlantirishda foydalanish zarurligiga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotdagi har bir masala yozma va moddiy manbalar bilan taqqoslanganligi, dala ekspeditsiya ishlarida qo'lga kiritilgan arxeologik materiallardan foydalanilganligi, tarix va arxeologiya fanida tan olingan usullardan foydalanilganligi va ilmiy tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Choch tarixiy-madaniy o'lkasi chorvadorlar madaniyatining shakllanishi, voha moddiy va ma'naviy madaniyatidagi o'zgarishlar va bu madaniyatning tarqalishi, ularga migratsion va etnomadaniy jarayonlar ta'sirini asoslanishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishida olingan ilmiy natijalardan arxeologiya, antropologiya, O'zbekiston tarixi, etnologiya, jahon sivilizatsiyalari tarixi, o'lkashunoslik va boshqa qadimgi madaniyatlarni o'rganuvchi fan sohalariga oid mavjud nazariy bilimlarni yanada boyitishda, ularning dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirishda foydalanish mumkin. Chorvadorlar madaniyatini chuqur o'rganish ularning an'anaviy turmush tarzi modelining tub asoslari to'g'risidagi arxeo-antropologik qarashlarni rivojlantirish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari, umumiy xulosa va tavsiyalardan jamoat va davlat tashkilotlari, xususan, Oliy ta'lim muassasalari, ilmiy tadqiqot muassasalari va ommaviy axborot vositalari faoliyatida O'zbekiston tarixini yoritishda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. «Turk xoqonligi davri Choch vohasi chorvadorlari madaniyati» mavzusidagi tadqiqot bo'yicha qo'lga kiritilgan ilmiy natijalar asosida quyidagilar amalga oshirildi:

Turk xoqonligi davri Choch vohasi chorvadorlari madaniyatining tarixshunoslik masalalari “O'lkashunoslik bosqichi” (1876–1917-yy.), “Ilmiy-amaliy izlanishlar bosqichi” (1920–1940-yy.), “Ilmiy asoslangan statsionar izlanishlar bosqichi” (1950–1991-yy.) va “Mustaqillik davri izlanishlari” (1991-yildan buyon) kabi 4 bosqichda ochib berilganligi hamda Turk xoqonligi davriga kelib Choch vohasi tekislik hududlarida katakomba qabr turlari yo'qolib ketgani, vohaning tog'li tegralarida esa bu madaniy an'ananing saqlanib qolgani G'arbiy Tangritog' tizmasidagi So'ngak qabristoni misolida isbotlanganligi xususidagi xulosalar Toshkent viloyati madaniy meros boshqarmasining madaniy meros targ'iboti faoliyatini yuritishda foydalanilgan (Madaniy meros agentligining 2023-yil 14-fevraldagi 02-08/349 - son ma'lumotnomasi). Bunda, So'ngak qabristoni inson osteologiyasining bioarxeologik o'rganilishi davomida, bosh deformatsiyasi (bir bosh chanoqning kraniologik o'lchash uslubi asosida halqali deformatsiyaga ega ekanligi), mozor-qo'rg'ondan qo'lga kiritilgan ot anjomlari hamda kiyim bezaklari kabi moddiy madaniyat unsurlarining Turk xoqonligi davrida Markaziy Osiyo sharqiy tegralari ko'chmanchi xalqlari ta'sirida shakllangani, So'ngak qabristoni “qabr tortiqlari”ning tahlili asosida ilk o'rta asr Choch vohasi tog'li tegra ko'chmanchi aholisining ko'mish udumlarida bu yerda Turk xoqonligining sharqiy qismlaridan kirib kelgan yangicha ot kultining mahalliy udumlar bilan sintezi kabi ilmiy xulosalaridan boshqarmaning moddiy-madaniy va arxeologiya merosini asrab-avaylash, targ'ib qilish faoliyatida keng qo'llanilgan.

VII asrning o'rtalaridan G'arbiy Turk xoqonligida sodir bo'la boshlagan siyosiy bosh-boshdoqlik natijasida Chochdagi tegin va tudun kabi unvonlarga ega shaxslarning siyosiy mustaqillikka intilishi ma'muriy-boshqaruv an'alarida o'rnatilgan tartib-qoidalarning buzilib borganligini anglatishi dalillanganligi hamda Turk xoqonligi davri Choch vohasi chorvadorlari madaniyatidagi ko'mish udumlariga xos bo'lgan balbal shaklidagi tosh haykallar asosida bu davrda turklashuv jarayonining jadal kechganligi isbotlanganligi yuzasidan tahlillariga oid materiallardan Milliy arxeologiya markazida 2018–2021-yillarda bajarilgan «IT3-201709287 – O'rta asrlarda shimoli-sharqiy O'zbekiston tabiiy landshaftlarining o'zlashtirilishi» mavzusidagi amaliy tadqiqot loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2023-yil 10-fevraldagi 3/1255-301 - son ma'lumotnomasi). Xususan, loyihaning ko'chmanchilar madaniyatini o'rganish borasidagi tadqiqotlarida Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida joylashgan So'ngak qabristonida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida to'plangan topilmalar asosida hududning hunarmandchilik tarixi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti masalalariga taalluqli ilmiy xulosalardan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy konferensiya va seminarlarda, jumladan, 2 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy konferensiyalarda qilingan ma'ruzalarda muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari uchun asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 5 tasi respublika va 2 tasi xorij jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning tadqiqot qismi 167 betni tashkil etib, unga 52 ta ilustrativ materiallardan iborat albom ilova qilingan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzuning o'rganilganlik darajasi ochib berilgan, ishning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Choch vohasi tabiiy geografiyasi va chorvadorlar moddiy madaniyatining arxeologik o'rganilishi**» deb nomlanadi. Bu bobda turli nashrlarda muntazam yoritilgan Choch vohasi ko'chmanchilari madaniyatini arxeologik o'rganish tarixshunosligi va tarixi berilgan hamda ko'rib chiqilayotgan muammo bo'yicha mavjud arxeologik tadqiqotlarga manba sifatida umumiy tavsif berilgan.

Choch vohasi ko'chmanchi madaniyatini o'rganish tarixida ilmiy tadqiqotlarning miqdori va sifatiga ko'ra bir-biridan farq qiluvchi bir necha bosqichlar mavjud:

Birinchi bosqich. Birinchi bosqich XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi arxeologik izlanishlarni o'z ichiga oladi va o'lkashunoslik xususiyatidagi tadqiqotlar davri sanaladi. Ilk tadqiqotchi o'lkashunoslardan D. M. Gramenitskiy 1876-yilda D. K. Zatsepin va N. Pantusovlar bilan birga vohaning Ohangaron havzasi tog'oldi hududlarida joylashgan qadimgi davrlarga oid mozor-qo'rg'onlarni o'rgangan¹⁸.

Ilk arxeologik tadqiqotlar jarayonida to'plangan materiallar 1876-yilda tashkil etilgan Turkiston muzeyiga topshirilgan¹⁹. Keyinchalik, 1887-yilda N. P. Ostroumov, N. I. Ivanova, D. S. Gimer va Y. N. Gulyayevlar ishtirokida Toshkent shahridan 4 km shimolda, Do'rmon qishlog'i yo'lidagi "Nikiforov yerlari"da (hozirda Toshkent shahar Mirzo Ulug'bek tumani Qorasuv mavzesi hududlari) katakomba tipidagi 20 ta qabr ochib o'rganilgan. Ushbu qabrlar o'rganilishi haqidagi hisobot Arxeologiya komissiyasiga, topilmalar esa Moskvadagi Tarix muzeyiga

¹⁸ Зацепин Д. К. Поѣздка къ развалинамъ Шаракия // Туркестанския ведомости. 1876. № 24. – С. 3-4; Теварихи – Шахрухъ // Туркестанския ведомости. 1876. № 30. – С. 1; Граменицкий Д. М. Заметки о древних урочищах Туркестанского края // Туркестанския ведомости. 1879. № 12. – С. 2.

¹⁹ Маев Н. А. Заметка о Ташкентском музее // Туркестанския ведомости. 1876. – № 28. – С. 2.

yuborilgan²⁰.

1895-yilda Toshkentda tashkil etilgan “Turkiston arxeologiya havaskorlari to‘garagi” ning 100 ga yaqin a‘zolari Chirchiq havzasida joylashgan Toshkent shahri va uning atroflarida, Ohangaron havzasidagi arxeologik yodgorliklarda qidiruv-kuzatuv ishlarini ham amalga oshirishgan. Unga ko‘ra, qadimgi qabristonlar asosan Chirchiq, Ohangaron, Qorasuv, Salor, Bo‘zsuv suvlari vodiylarida joylashgan. Chirchiq daryosi bo‘ylab joylashgan mozor-qo‘rg‘onlar esa Chinozgacha yetib borgan va Sirdaryoning o‘ng sohili bo‘ylab davom etgan²¹. Y. T. Smirnov bu qabrlar mahalliy xalq tomonidan “kofirlar qabristoni” nomi bilan atalishini qayd etgan²².

Umuman olganda, birinchi bosqichda amalga oshirilgan ishlar arxeologik obyektlarni aniqlash va ulardan topilgan ashyolarni yig‘ish bilan xarakterlanadi. Topilmalarning tashqi belgilariga ta‘rif berilib, ma‘lum xulosalar qilingan. Qayd etish kerakki, to‘plangan materiallar keyingi tadqiqotlarning natijalariga ijobiy ta‘sir etib, ulardan to‘g‘ri ilmiy xulosalar chiqarishga imkon bergan.

Ikkinchi bosqich (1920–1940-yillar) – sovet tuzumi davridagi arxeologik tadqiqotlarning dastlabki ilmiy natijalarini o‘zida aks ettirgan. Bu davrda tadqiqotchilar tomonidan vohani arxeologik jihatdan o‘rganish ko‘lami kengayib, ilmiylik darajasi oshgan.

1950-yilgacha olib borilgan tadqiqotlar natijasida aniqlangan obyektlarni hisobga olish hamda davlat muhofazasiga o‘tkazish bo‘yicha maxsus chora-tadbirlar ishlab chiqila boshlangan. Bunda “Турккомстарис”, “Средазкомстарис” va “Узкомстарис” tashkilotlarining roli muhim bo‘lgan. Mazkur davrda ilk marta yodgorliklar topografik va stratigrafik jihatdan o‘rganilgan. 1918-yilning 5-dekabridagi Sovet hukumatining maxsus dekreti bilan Turkiston ASSRda muzey ishlari va qadimiy yodgorliklar, san‘at va tabiatni saqlash Turkiston qo‘mitasi (Турккомстарис) tuzilib, u 1920–1928-yillarda faoliyat yuritgan. Bu yillarda V. D. Jukov, A. A. Potapov, M. V. Voyevodskiy, M. P. Gryaznov, M. Y. Masson va T. Mirg‘iyosov kabi arxeologlar ilmiy izlanishlar olib borib, ular Chirchiq-Ohangaron havzasidan topilgan yodgorliklarni tizimlashtirish ishlari bilan shug‘ullanishgan.

Dastlabki maxsus arxeologik tadqiqotlar 1928-yilda M. Y. Masson tomonidan To‘ytepa (hozirgi Nurafshon) shahri atrofida olib borilgan. Bu tadqiqotda O‘rta Osiyo muzeyi (hozirgi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyi) xodimlari: T. Mirg‘iyosov hamda “Muzey do‘stlari” to‘garagi a‘zolari D. Nesterov va N. Vundsettel ishtirok etishgan. Ular tomonidan ostadon saqlanadigan ikkita naus – dahmalar aniqlangan. M. Y. Masson Ulkan To‘ytepani o‘rta asr arab va fors tilli manbalarida qayd qilingan Nukat shahri xarobasi bo‘lishi mumkinligini taxmin qilgan²³. Aynan shu arxeologik tadqiqotlarda guruh tomonidan To‘ytepa atrofidagi mozor-qo‘rg‘onlar ham o‘rganilgan.

²⁰ Сорокин С. С. Среднеазиатские подбойные и катакомбные захоронение как памятники местной культуры // СА, Вып. XXVI. 1956. – С. 97.

²¹ Агзамходжаев Т. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины I-VIII вв. н.э. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1966. – С. 8.

²² Массон М. Е. Ахангеран ... – С. 19-20; Qarang: Смирнов Е.Т. Древности в окрестностях г. Ташкента // ПТКЛ. Первый год. – Ташкент, 1896. – С. 113;

²³ 1928 yil M.Y. Masson tomonidan olib borilgan tadqiqotlar I. I. Umnyakov tomonidan chop qilingan. Qarang: Умняков И.И. Архитектурные памятники Средней Азии, исследование, ремонт, реставрация, 1920-1928 гг. – Ташкент, 1929. – С. 26.

Islohot arig'i bo'yida ikkita qo'rg'on ochilgan. Ularning birida sopol buyumlar bilan birga boshi sharqqa qaratilgan erkak kishining mayiti aniqlangan bo'lsa, ikkinchisida ikkita erkak va bir yosh bolaning jasadi qayd etilgan. M. Y. Masson bu qabrlarni eramizning boshlanishi bilan davrlashtirgan²⁴.

1929–1930-yillarda Uzkomstaris topshirig'i bilan M. V. Voyevodskiy A. A. Potapov, I. N. Lutskevich, V. D. Jukov va T. G. Obolduyevalar bilan birgalikda Piskent yaqinida 8 ta katakomba tipidagi qabrlarni ochishga muvaffaq bo'ladi. Katakombalar dromosi shimol tomonda tugab, qabrga kirish arkasimon qilib ishlangan. Qabrlarda mayitlar yakka va guruh holda ko'milgan bo'lib, boshlari sharqqa qaratilgan. Ular yonidan bronza oyna, munchoqlar, sopol idishlar, temir pichoqlar va boshqa ashyolar aniqlangan. M. V. Voyevodskiy bu qabrlarni V-VIII asrlar bilan davrlashtirgan²⁵.

Ikkinchi davrda olib borilgan tadqiqotlar ma'lum topografik, planigrafik, stratigrafik ahamiyatga ega bo'lgan hamda yodgorliklarni tizimlashtirish masalalariga muayyan aniqliklar kiritib, keyingi ilmiy izlanishlar uchun zamin yaratdi.

Uchinchi bosqich o'tgan asrning 50-yillaridan boshlandi. Bu davrda Choch vohasi arxeologiyasini o'rganish yangi bosqichga ko'tarildi. Oldingi davrlarda to'plangan materiallar asosida o'ziga xos ilmiy-uslubiy maktab shakllana boshladi. Xususan, XX asrning 50-yillarda M. Y. Masson rahbarligida ToshDU (hozirgi O'zMU)ning Arxeologiya kafedrasini a'zolari vohada bir qancha arxeologik yodgorliklarni aniqlab, ulardan ayrimlarining tarhini chizishgan²⁶. Ayni paytda, M. Y. Masson B. A. Litvinskiy bilan hamkorlikda havzadagi tog'-kon zonasi yodgorliklarini o'rgangan²⁷. M. Y. Masson o'z ilmiy tadqiqotlari asosida "Toshkent shahri va viloyati tarixiy topografiyasi" bo'yicha o'quv qo'llanma va "Ohangaron: arxeologik-topografik ocherk" nomli asarini yaratgan²⁸.

O'tgan asrning 50–60-yillarida T. R. Agzamxodjeyev Toshkent vohasidagi ko'chmanchi chorvadorlarga tegishli mozor-qo'rg'onlarni o'rganib, Chotqol-Qurama tog'oldi hududlaridagi qadimgi va ilk o'rta asrlar davriga oid yodgorliklarni tekshirgan. Tadqiqotchi tomonidan Angren yaqinidagi Apartak yerosti dahmalari (sklep), Tuyabo'g'iz nauslari, Toshkent shahridagi Qatortol mozor-qo'rg'oni, Qizilsuv qabrlari, Vrevskaya stansiyasi yaqinidagi qabrlar arxeologik o'rganilgan va ilmiy muomalaga kiritilgan. Tadqiqotchi tomonidan ilk marotaba Toshkent vohasi hududidagi dafn

²⁴ Массон М. Е. Ахангеран ... – С. 19-20.

²⁵ Массон М. Е. Историческая археология на службе геологической разведки // Народное хозяйство Средней Азии. – Ташкент, 1930. – № 2. – С. 55.

²⁶ Буряков Ю. Ф. Новые археологические данные о городище Улькан Тойтубе (шахристан Нукета) // Научные работы и сообщения. Кн. 6. – Ташкент, 1963. – С. 251-261; Буряков Ю. Ф. Некоторые материалы по металлургии в долине Ангрена (IX-X вв.) // Материалы по истории Узбекистана. – Ташкент, 1963. – С. 108-112; Ўша муаллиф. Археологические материалы по истории Тункета и Абрлыга // Материалы по истории Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1966. – С. 76-151.

²⁷ Массон М. Е. Ахангеран. ... – С. 117-119; Ўша муаллиф. К истории горного дела на территории Узбекистана. – Ташкент, 1953. – С. 24-27; Литвинский Б. А. Предварительный отчет о работах в Карамазарских горах отряда по сбору материалов для составления археологической карты в 1954 г. Обследование старинных рудников Карамазарских гор. // Труды АН ТаджССР. – Сталинабад, 1956. – С. 12; Ўша муаллиф. Среднеазиатский горный промысел в средней века (IX-XII вв.). Техника. // Материалы Второго совещания археологов и этнографов. Средней Азии. – М.-Л., 1959. – С. 47-52.

²⁸ Массон М. Е. Ахангеран. ... – 150 с.

inshootlari haqidagi umumlashma tadqiqot ishi himoya qilingan²⁹.

Aytish mumkinki, XX asrning 60–90-yillarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Y. F. Buryakov, M. I. Filanovich, E. V. Rtveladze, L. G. Brusenko, Z. S. Galiyeva, G. I. Bogomolov, S. R. Ilyasova va boshqa olimlar vohaning antik va oʻrta asrlar davri shaharsozligi masalalarini, T. R. Agzamxodjeyev, X. I. Duke va K. Alimovlar esa mozor-qoʻrgʻonlar va dafn inshootlari asosida chorvadorlar moddiy madaniyati muammolarini tadqiq etishgan.

Toʻrtinchi bosqich – 1991-yildan hozirgi kunga qadar olib borilgan arxeologik tadqiqot ishlarini qamrab oladi. Bu davrda Oʻzbekiston arxeologiyasida katta oʻzgarishlar sodir boʻladi. Arxeolog olimlarimiz dunyodagi yetakchi ilmiy markazlar bilan hamkorlik qilishni yoʻlga qoʻydilar.

Ushbu davrda Choch vohasida olib borilayotgan arxeologik tadqiqotlarda oʻzgacha qarashlar, nazariyalar, ilmiy-metodologik yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalar qoʻllanilmoqda³⁰.

1993–1994-yillarda Ohangaron havzasi arxeologiyasini oʻrganishda OʻzR FA Arxeologiya instituti xodimlari Y. F. Buryakov va G. I. Bogomolovlarning olib borgan ilmiy izlanishlari alohida ahamiyatga ega³¹.

2001-yilda K. Alimov va S. R. Baratov Kavardan yodgorligida arxeologik qazishmalar olib borishgan. Uning yaqinidan eramiz boshlariga taaluqli katakomba qabrlari ham ochib oʻrganilgan³². Kavardandagi qazishma ishlari natijasida V–VII asrlarga oid nauslar paydo boʻlishi va qoʻlda yasalgan sopol idish parchalari koʻplab uchrashi kuzatildi. Natijada shu davrda koʻchmanchi va oʻtroq aholining oʻzaro aloqalari kuchaygani va bu hududlarda yangi diniy eʼtiqodlar natijasidagi dafn inshootlari paydo boʻlganligi tadqiqotchilar tomonidan alohida qayd qilindi³³.

2009-yilda akademik A. A. Asqarov boshchiligidagi guruh Ohangaron havzasining Yuqori Ertosh qishlogʻida III–IV asrlarga oid Oʻralitepa ibodatxonasini, Taypan qishlogʻida I–IV asrlarga oid shu qishloq nomidagi mozor-qoʻrgʻonda bitta qabrni ochib oʻrgandi³⁴.

2012-yilda Angren-Pop temir yoʻlining Ohangaron tumanidan oʻtgan qismida

²⁹ Agzamxodjaev T. Погребальные сооружения Чирчик-Ангренской долины I–VIII вв. н.э. Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Ташкент, 1966; Agzamxodjaev T. Раскопки погребальных курганов близ ст. Вревская // ИМКУ, Вып.2. – Ташкент. 1961. – С. 233.

³⁰ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи... – Б. 233-237, 277-350; Буряков Ю. Ф. Роль металлургии в урбанизации среднеазиатского междуречья // Tsonsoxiana. История и культура. – Ташкент, 2004. – С. 55-62; Ўша муаллиф. Керамическое производство средневекового Чача по материалам Канки и Шахрухии // Средняя Азия. Археология. История. Культура. Материалы международной конференции посвященной 50-летию научной деятельности Г. В. Шишкиной. – М., 2000. – С. 33-35; Буряков Ю. Ф., Грицина А. А. Мавераннахр на Великом Шелковом пути. – Самарканд-Бишкек, 2006. – С. 165-177; Богомоллов Г. И. Городская культура Ташкентского оазиса (античность и ранее средневековье) // Ўзбекистон тарихи. – 2008. – 2-сон. – 29-бет; Филанович М. И., Богомоллов Г. И., Баратова Л. С. Раскопки на городище Шаштепа в Ташкенте // АИУз 2001. – Самарканд, 2002. – С. 4.

³¹ Буряков Ю. Ф. Керамическое производство средневекового Чача по материалам Канки и Шахрухии ... – С. 33-35; Богомоллов Г. И. Городская культура Ташкентского оазиса (античность и ранее средневековье) ... – 29; Богомоллов Г. И. Средневековые погребушки Шаша // Культурное наследие Средней Азии. – Ташкент, 2002. – С. 31.

³² Исламов У. И., Баратов С. Р., Алимов К. Археологическиеработы в Паркентском, Бостанлыкском и Ахангаранском районах Ташкентской области // АИУз 2001 году. – Самарканд, 2002. – С. 76-81;

³³ Баратов С. Р. Кавардан шаҳар харобаси // Тошкент воҳаси археологияси (Ўзбек, рус ва инглиз тилларида / ЮНЕСКОнинг молиявий ёрдамида “Тошкентнинг тарихий ва маданий меросини тадқиқ этиш” номли Қатнашув дастури доирасида нашр этилган). – Тошкент. 2010. – Б. 33-34.

³⁴ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи ... – Б. 237.

археологик қидирув ишлари олиб борилиб, 5 та yodgorlik: Beshko‘l Oqtepsi va Eski Chinor qishloqlari hamda uchta joydan mozor-qo‘rg‘onlar aniqlangan³⁵.

2018-yilda S. R. Ilyasova boshchiligidagi guruh Ohangaron tumanida bronza davriga oid Quyun, o‘rta asrlarga taaluqli Shodmalik ota yodgorligini topib, ilk arxeologik qazishmalari amalga oshirdi. Natijada salmoqli yangiliklar qo‘lga kiritildi³⁶.

Umuman olganda, Toshkent vohasining qadimgi va o‘rta asrlar davri tarixini o‘rganish, uning moddiy madaniyat majmualarini davrlashtirish masalasida G. V. Grigoryev³⁷, S. P. Tolstov³⁸, A. I. Terenojkin³⁹, V. I. Sprishevskiy, B. A. Litvinskiy⁴⁰, T. N. Knipovich⁴¹, L. M. Levina⁴², T. G. Obolduyeva⁴³, Y. F. Buryakov⁴⁴, M. I. Filanovich⁴⁵, A. A. Asqarov⁴⁶, G. I. Bogomolov⁴⁷, S. R. Ilyasova⁴⁸ va boshqa olimlarning ilmiy tahlillari muhim o‘rin tutadi.

XIX asrning ikkinchi yarmidan hozirgi kunga qadar amalga oshirilgan keng ko‘lamdagi arxeologik tadqiqotlar natijasida to‘plangan ashyolardan ko‘plab tadqiqotchilar o‘zlarining ayrim muammoviy mavzulari doirasida yoritilgan ilmiy ishlarida foydalanishgan. Jumladan, Choch vohasidagi tovar-pul munosabatlari bilan

³⁵ Анарбоев А. А., Баратов С. Р., Буряков Ю. Ф., Вульферт Э. Ф. Археологическая разведка и исследования по железнодорожной трассе Ангрен-Поп // АИУз 2012 год. Вып. 9. – Самарканд. 2013. – С. 17-20.

³⁶ Ильясова С. Р., Максудов Ф. А., Хамидов О. А., Линг Мей, Вульферт Э. Ф., Нормуродов Д. Р. Раскопки на Куёне в 2018-2019 годах // Археологические исследования в Узбекистане 2018-2019 гг., Вып. 12. – Самарканд. 2020; Ильясова С. Р., Вульферт Э. Ф. Исследования на памятнике Шодмалик-ота в 2018-2019 гг. (Ахангаранский район, Ташкентская область) // Археологические исследования в Узбекистане 2018-2019 гг., Вып. 12. – Самарканд. 2020; Ильясова С. Р., Иванов Г. П. О раскопчных работах на памятнике Шодмалик-Ота (Ахангаранский район Ташкентской области) в 2020 г. // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар, № 13. – Самарканд. 2021. – С. 71-94.

³⁷ Григорьев Г. В. Отчет об археологической разведке в Янгиюльском районе УзССР в 1934 г ... – 50 с.; Ўша муаллиф. Каунчитепа (раскопки 1935 г.). – Ташкент, 1940. – С. 3-40.

³⁸ Толстов С. П. К вопросу о датировке культуры Каунчитепа // ВДИ. – Москва, 1946. – № 1. – С. 175-176.

³⁹ Тереножкин А. И. Согд и Чач... – С. 152-169; Ўша муаллиф. Древнейшие земледельцы Ташкентского оазиса. ... – С. 23-37.

⁴⁰ Литвинский Б. А. Джунский могильник и некоторые аспекты каннойско проблемы // СА. – 1967. – № 2. – С. 29-37.

⁴¹ Книпович Т. Н. Некоторые вопросы датировки среднеазиатской керамики домусульманского периода // КСИИМК. – Вып. XXVIII. – М-Л., 1949. – С. 73-75.

⁴² Левина Л. М. Этнокультурная история Восточного Приаралья. – М., 1996. – С. 5-7.

⁴³ Оболдуева Т. Г. Курганы каунчинской и джунской культуры // КСИИМК. – Вып. XXIII. – М-Л., 1948. – С. 101-102.

⁴⁴ Буряков Ю. Ф. Генезис и этапы развития городской культуры Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан. 1982. – 140 с.; Буряков Ю. Ф., Қосимов М. Р., Ростовцев О. М. Тошкент областининг археологик ёдгорликлари. – Ташкент: Фан. 1975. – 120 б.; Буряков Ю. Ф. Историческая топография Ташкентского оазиса. – Ташкент: Фан. 1975. – 204 с.; Буряков Ю. Ф. Древний и средневековый город восточного Мавераннахра. – Ташкент: Фан. 1990. – 130 с.; Аминов В., Буряков Ю. Ф., Ходжайов Т. К. Новые данные к этнической истории долины Ахангарана // ИМКУ, Вып. 14. – Ташкент. 1978. – С. 79-87.

⁴⁵ Филанович М. И. Древняя и средневековая история Ташкента. – Ташкент. 2010. – 312 с.

⁴⁶ Аскарлов А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – Б. 290.

⁴⁷ Богомолов Г. И. Изображения всадников с городища Канка // ИМКУ, № 20, 1986. – С. 69-79; Богомолов Г. И. К изучению оссуарного обряда Чача // ИМКУ, Вып. 35. – Ташкент. 1988. – С. 183-193; Богомолов Г. И. Отражение некоторых мифологических воззрений в раннесредневековой архитектуре Чача и Согда // ИМКУ, Вып. 22. – Ташкент. 1988. – С. 59-66; Богомолов Г. Городская культура Ташкентского оазиса (античность и раннее средневековье). // O‘zbekiston tarixi. 2008, №2, – Б. 31; Богомолов Г. И., Мусакаева А. А. К вопросу о локализации Тарбанда и его названии // Ташкент: вчера и сегодня. – Тошкент., 2007. – С. 66-77.

⁴⁷ Баратов С. Р. Кавардан шаҳар харобаси // Тошкент воҳаси археологияси (Ўзбек, рус ва инглиз тилларида / ЮНЕСКОнинг молиявий ёрдамида “Тошкентнинг тарихий ва маданий меросини тадқиқ этиш” номли Қатнашув дастури доирасида нашр этилган). – Тошкент. 2010.

⁴⁸ Ильясова С. Р. Раннесредневековая керамика замка Актепа Юнусабадского в Ташкенте // ИМКУ, Вып. 28. 1997. – С. 117-124; Ильясова С. Р. Раскопки парадного комплекса Актепа Юнусабадского // ИМКУ, Вып. 34. 2004. – С. 207-213.

bogʻliq masalalar E. V. Rtveladze, L. S. Baratova, A. A. Musakaeva, G. B. Boboyorov, A. Kubatnlarning ilmiy tadqiqotlarida oʻz aksini topgan⁴⁹.

Umuman olganda, Choch vohasidan topib oʻrganilgan arxeologik manbalar Oʻrta Osiyo mintaqasi tarixining ayrim jihatlarini chuqur tahlil etish uchun asos boʻlib xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «**Soʻngak – Choch vohasidagi Turk xoqonligi davri qabristoni**» deb nomlanib, uch paragrafdan iborat. Birinchi paragraf «**Oʻrnashuv ekologiyasi**», deb nomlangan boʻlib, unda Soʻngak qabristonining joylashgan oʻrni, Chorvoq hududining oʻziga xos xususiyatlari va unda olib borilgan arxeologik kuzatuv izlanishlarining ilmiy natijalari bayon etilgan.

Soʻngak qabristoni Chotqol daryosining chap qirgʻogʻi (hozirda Chorvoq suv omborining janubi-sharqiy qismi) da, dengiz sathidan 900-950 m balandlikda joylashgan. Yonbagʻir boʻylab joylashgan qabriston gʻarbidan kichik ariq oqib oʻtadi va u mavsumiy xarakterga ega. Bugungi kunda, Chorvoq suv ombori hududining kengayishi va uning suvlarini yillar davomida qirgʻoqlarni yemirishi tufayli tuproq eroziyasi kuzatilib, qabriston hududidagi qoʻrgʻonlar deyarli saqlanmagan. Qabrlarning aksariyati toʻliq va qisman buzilgan. Qabristonning saqlangan qismi taxminan 1 ga maydoni egallaydi. U shimoli-sharqdan janubi-gʻarbga 100-150 m, gʻarbdan sharqqa 30-60 m masofaga choʻzilgan.

Chorvachilik uchun qulay boʻlgan mazkur togʻli va togʻ oldi hududlarida milodiy I ming yillik oʻrtalaridan boshlab aholining tez surʼatlarda oʻtroqlashuvi kuzatiladi. Ayniqsa, Turk xoqonligi davriga kelib, Piskom vodiysi orqali Talasga, Chotqol daryosi boʻylab esa Qumbel va Changli dovonlari orqali Fargʻona vodiysiga va Qoraboʻri dovoni orqali esa Talas vodiysiga oʻtilgan. Bu yerlardan qadimda Choch, Fargʻona va Yettisuv bozorlariga yilqi uyurlari, yirik va mayda shoxli qoramollar qishloq xoʻjaligi mahsulotlari va hunarmandchilik buyumlariga ayirboshlash uchun olib borilgan. Aytish mumkinki, ayni shu kabi qulay sharoitga ega togʻ osti hududlari vohadan koʻchib kelib oʻrnashgan oʻtroq dehqonlar va oʻtroqlasha boshlagan qoʻnar-koʻchar jamoalar toʻqnash kelgan nuqta edi⁵⁰.

Chochning ilk oʻrta asrlar davri aholisi turmush tarzi va mehnat faoliyati bir-biriga bogʻliq boʻlib, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar orqali yanada mustahkamlangan. Bu munosabatlar madaniy aloqalarda ham oʻz ifodasini topgan. Hududning Turk xoqonligi tarkibiga kirishi koʻchmanchi va oʻtroq xalqlar simbiozini yuqori nuqtasi boʻlgan. Shu bilan birga Chirchiq-Ohangaron vodiysining koʻchmanchi chorvador qatlami togʻli tegralarda oʻz xoʻjaligini kengaytirib borgan.

⁴⁹ Rtveladze Э. В. История и нумизматика Чача (вторая половина III – середина VIII в. н. э.). – Ташкент, 2006. – 132 с.; Бабаяров Г. Древнетюркские монеты Чачского оазиса (VI – VIII вв. н.э.). – Ташкент, 2007. – 120 с.; Бобоёров Ф. Чоч тарихидан лавхалар. – Тошкент, 2007; Баратова Л. С. Древнетюркские монеты Средней Азии VI-X вв. (типология, иконография, историческая интерпретация): Автореф. дис. канд. ист. наук. – Тошкент.: ИВ АН РУз, 1995. – С. 26. Мусакаева А. А. Начальный этап денежного обращения в Чаче // Роль города Ташкента в развитии мировой цивилизации. Материалы Международной научной конференции, посвященной 2200-летию юбилею города Ташкента. – Ташкент, 2009.– С. 162-169.

⁵⁰ Древности Чарвака ... – С. 3.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi «**Yodgorlik tadqiqi va undagi ko‘mish udumi**» deb nomlangan bo‘lib, unda *qabrlar tuzulishi, jasadlar qo‘yilishi va paleoantropologik ma’lumotlar* haqida so‘z yuritilgan.

So‘ngak qabristonida olib borilgan tadqiqot davomida ko‘mish udumining o‘ziga xosligini kuzatish mumkin. Yon bag‘ir bo‘ylab shimol-janub yo‘nalishida qo‘yilgan qabrlar qatori to‘ldirilgach, pastga yoki tepaga yangi qator tashkil etish orqali qabriston to‘ldirib borilgan.

Dafn inshootlarining yo‘nalishi hududning topografik xususiyatlariga ham xos bo‘lib, qabriston joylashgan qiyalik g‘arb tomonga qaragan. Albatta, dromoslar ham g‘arbdan sharqqa yo‘naltirilgan. Dafn kamerasi dromos yo‘nalishiga perpendikulyar, ya’ni shimol-janub yo‘nalishida. № 4 va № 5 qabrlarning dromoslari katakomba markaziga emas, shimoli-g‘arbroqda, ya’ni mayitlar bosh qismiga yaqin joylashgan. Dafn etilganlar boshlari asosan shimolga (shimoli-sharq, shimoli-g‘arb), uchta holatda janubga, ikkita qabrda esa sharqqa yo‘naltirilgan.

Qabriston Chorvoq suv ombori suv sathining yillar davomida, doimiy ko‘tarilib tushishi natijasida jiddiy zarar ko‘rgan. Katakombalarning qiyalikdagi joylashuvi, uzoq muddatli suv eroziyasi qabr va qabr usti tuzilmalarini to‘liq aniqlashga imkon bermaydi. Balandroqda joylashgan qabrlarning qo‘rg‘onlari esa suv ombori qurilishi vaqtida buldozerda tuproq surilishi oqibatida buzilgan.

Tadqiq etilayotgan So‘ngak qabristoni qabrlarida faqat yakka holda ko‘mish odati kuzatiladi. Mayit bilan juda oz miqdorda buyumlar qo‘yilgan. Mayitlar qo‘l-oyog‘i yozilgan holda, chalqancha yotqizilgan. Qabr xonasi esa tosh bilan yopilgan. Qovunchi va Kenko‘l madaniyatlari mozar-qo‘rg‘onlarida qabrlarga bittadan to‘rttagacha oila a’zolar birga dafn etilgan bo‘lsa, bu yodgorlikda bitta mayit dafn etish an’anasi ustuvor bo‘lgan. Ilk o‘rta asrlarda arablar bosqinigacha va undan keyingi davrlarga tegishli qatakomba tipidagi qabrlari bo‘lgan mozar-qo‘rg‘on Farg‘ona vodiysining Qirg‘iziston hududidagi Uch-ot qabristoni vodiy uchun yagona sanaladi. Ushbu yodgorlikni Y. A. Zadneprovskiy o‘z vaqtida qabrdan topilgan xalifalik davri tangasi asosida VII asr oxiri – VIII asrning ikkinchi yarmi bilan davrlashtirgan edi⁵¹.

So‘ngakliklarning tasavvuricha, marhumni e’zozlab, narigi dunyoga kuzatish va uning «marhumlar dunyosi»da yaxshi yashashi uchun kerakli qulayliklar yaratilishi kerak bo‘lgan va kamtarona tarzda amalga oshirilgan. Bunda mayit yoniga qo‘yilayotgan oziq-ovqat va buyumlar, ya’ni «tortiqalar» qabrning lahad qismiga bemalol joylashtirilgan va o‘tkazilayotgan marosimlar ham to‘liq ado etilgan. Ahamiyatlisi shuki, ko‘plab arxeologik madaniyatlar namoyondalari kabi qabrni narigi dunyoga «eshik»⁵², qo‘rg‘on – o‘sha dunyoga kirish, mozar-qo‘rg‘on (qabriston) esa «narigi dunyo» bilan aloqa o‘rnatish joyi sifatida ko‘rilishi⁵³ mazkur qabristonda ham o‘z ifodasini topgan.

⁵¹ Заднепровский Ю. А. Раскопки катакомбного могильника Уч-Ат в Южной Киргизии в 1973 г. // УСА, № 3. 1975. – С. 53-55.

⁵² Антонова Е. В. Место умерших в жизни живых и погребальный инвентарь: археологические факты и исторические свидетельства (Месопотамия) // Погребальный обряд: Реконструкция и интерпретация древних идеологических представлений. – Москва. 1999. – С. 19-30.

⁵³ Каменецкий И. С. Впускные погребения // Теоретические и методические подходы к изучению погребального обряда в современной археологии. – Москва. 2005. – С. 11.

Ushbu bobning uchinchi paragrafi «**Hunarmandchilik buyumlari**» deb nomlangan bo‘lib, u «**Kulolchilik buyumlari**», «**Temirchilik buyumlari**» va «**Suyak va tosh buyumlar**» deb nomlangan kichik bo‘limlardan iborat.

So‘ngak qabristonidan aniqlangan barcha butun sopol buyumlar *suyuqlik idishlari* sanaladi. Qabristonning buzilishi natijasida tuproq yuzasiga chiqib qolgan 3 dona butun idish bilan birga, 12 ta qabrdagi 5 dona sopol idishni qo‘shganda 8 dona sopol buyumlar mavjud. Yodgorlik sopol idishlarini ikki guruhga ajratish mumkin: 1) Ko‘za; 2) Yog‘log‘i. Aniqlangan 5 tasi ko‘zaning 3 tasi bir dastali, 2 tasi dastasiz. Yog‘log‘ilar 3 dona bo‘lib, 2 tasi och qizil loydan yasalgan. Bittasi esa kulrang loydan ishlangan. Ularning barchasi qo‘lda yasalgan bo‘lib, ko‘zalar va 1 ta yog‘log‘i loyiga shamot qo‘shilgan. Ko‘zalar va S19-1 qabrdan chiqqan yog‘log‘i qo‘pol qilib yasalgan. Buyumlarda hech qanday bezak va belgilar uchramaydi. Faqatgina ba‘zi idishlarni pishirish jarayonida ayrim joylari qoraygan. S19-1 qabrdan aniqlangan ko‘za va yog‘log‘i dastalarining ustki qismida pindik chiqarib ishlangan. Ko‘za og‘zida suyuqlikni quyish uchun uchburchaksimon tumshuq (ochiq jo‘mrak) hosil qilingan. Uning ko‘rinishi yunon *oynoxoyyalariga* o‘xshatib yasalgan. Aytish mumkinki, oynoxoyyalar vino quyishda ishlatilgan dasturxon idishi sanaladi. S21-5 qabridan aniqlangan ko‘za jo‘mrakli bo‘lib, Qovunchi II va III davri sopollariga o‘xshab ketadi. Lekin, yasalish uslubining o‘ta dag‘alligi va dastasining joylashuvidagi farqlar, uni keyinroq ishlangan deyishga imkon beradi.

Yodgorlikdan aniqlangan *temir buyumlar* vazifasiga ko‘ra mehnat qurollari, kiyim-kechak aksessuarlari va ot anjomlariga bo‘linadi.

Mehnat qurollari pichoqlardan iborat bo‘lib, ular ko‘rinishiga qarab ikkita tipga ajratiladi. Yodgorlikdan 5 dona pichoq aniqlangan bo‘lib, ularni katta pichoqlar (1) va pichoqchalar (2) tiplariga ajratish mumkin. Katta pichoqlar bir tig‘li, uzunligi 15-25 sm, eni 2-2,5 sm gacha bo‘lib, tutqichlari yog‘ochdan yasalgan va yog‘och g‘ilofga solingan. Yog‘och tutqichlar chirib ketgan bo‘lib, ularning izlari saqlanib qolgan. Pichoqchalar esa 7-10 sm, eni esa 0,7-1,5 sm gacha bo‘lgan. Bu kabi pichoqlar Toshkent vohasi, Ustrushona, Janubiy Qozog‘iston va Farg‘ona vodiysidagi ko‘plab mozor-qo‘rg‘onlarda aniqlangan va milodning boshlaridan islomgacha bo‘lgan davrdagi qabrlarda uchraydi⁵⁴.

Kiyim-kechak aksessuarlari. Ular to‘qalar va kamarning temir qadama bezaklaridan iborat. Kamar to‘qalari aylana shakli tipida bo‘lib, diametri 3-4 sm atrofida. Ular asosan milodning boshlari va ilk o‘rta asrlarda mahalliy aholi tomonidan keng foydalanilgan.

Ot anjomlari. Yodgorlikda olib borilgan ilk kuzatuv tadqiqotlari natijasida ochilib qolgan qabrdan ot anjomlari bo‘lgan uzangi, suvluk va ayil to‘qalari

⁵⁴ Левина Л. М. Керамика нижней и средней течения Сырдарьи в 1 тыс. н.э. – Москва. 1971. – С. 184; Заднепровский Ю. А. Раскопки катакомбного могильника Уч-Ат в Южной Киргизии в 1973 г. // УСА, № 3. 1975. – С. 53-55.

aniqlandi⁵⁵. Ular yugan va egar-jabduq qismlaridan iboratdir. Yugan qismi anjomi suvluq bo'lsa, egar-jabduq qismlariga uzangi va ayil to'qalari kiradi.

Suyak buyumlar vazifasiga ko'ra, maishiy va o'yin buyumlariga bo'linadi. Maishiy xarakterdagi buyumlar ignadonlar sanalib, ular S21-4 va S21-9 qabrlaridan aniqlangan. 5-6 sm uzunlikdagi mazkur qo'yning ichi g'ovak naysimon suyagi (diafiz)dan ishlangan. Bu buyumlarni marhum hayotligi davomida foydalangan ignadon yoki mesh og'ziga mahkamlangan va suyuqlik ichishga qulay naycha sifatida talqin qilish mumkin. Bu kabi suyak buyumlarni musiqa asbobi deyish, bizningcha, maqsadga to'g'ri kelmaydi. Ularda tovushni turli xilligini ta'minlovchi teshiklar umuman yo'q. Bu esa ko'rinishi hushtak, fleyta yoki sivizg'ani eslatsa-da, ohang chiqmaydigan boshqa predmet ekaniga ishora qiladi.

O'yin buyumlari sifatida talqin qilinadigan boshqa bir suyak buyumlari – oshiq (astragal)lar bo'lib, u ham juda qadimdan insonlar tomonidan turli maqsadlarda foydalanib kelinadi. Oshiqnlarni qabrlarda uchrashini esa quyidagi sabablarga bog'lash mumkin: birinchidan, bolaning yoshini va uning faoliyatini asosiy turini ifodalovchi o'yin to'plamlari sifatida; ikkinchidan, dafn etilganlarning o'limidan so'ng «yaxshi ovqatlar» mavjudligini ta'minlaydigan marosim taomi sifatida; uchinchidan, o'limdan keyin odam ruhining qo'riqchilari va himoyachilari sifatida, uni narigi dunyo xudolari bilan bog'lashga xizmat qilgan buyum sifatida ko'rish mumkin.

Aytish mumkinki, o'rganilgan maishiy xarakterdagi va o'yin buyumlari bo'lgan suyak buyumlar o'sha davr kishilarining ijtimoiy faoliyati va turmush yo'sinini aks sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tosh buyumlar vazifasiga ko'ra, mehnat qurollari va bezanish buyumlariga ajratiladi. So'ngak qabristoni hududidan aniqlangan toshdan yasalgan mehnat qurollari tosh yanchg'ichlar hisoblanadi.

Bezanish buyumi surmatosh tayoqchasi bo'lib, Bunday tayoqchalar ayollar pardozi anjomi sifatida foydalanilgan. Ulardan juda uzoq vaqt davomida foydalanib kelingan. Eng qadimgilari Farg'ona vodiysining ilk temir davriga oid mozor-qo'rg'onlaridan aniqlangan⁵⁶. Milodning boshlariga taalluqli Farg'ona vodiysining ko'plab yodgorliklarida⁵⁷, Qovunchi madaniyatiga oid Toshkent vohasi mozor-qo'rg'on va manzilgohlarida⁵⁸, shuningdek, Janubiy Qozog'iston, Quyi Sirdaryo va Uralbo'yidan Tuvagacha bo'lgan hududlardan ham aniqlangan. B.A.Litvinskiy bu pardozi anjomi haqida mufassal to'xtalib, uning janubiy mintaqalardagi tarqalishi masalasini ham keng yoritib bergan⁵⁹.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Turk xoqonligi davri siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarida Choch vohasi**» deb nomlanadi. Ushbu

⁵⁵ Maksud F., Muradaliyev R. Göktürkler ve üzeninin yayılması üzerine // Genel Türk tarihi araştırmaları dergisi. Cilt/Volume 2, Sayı/Issue 4, Temmuz /July 2020, – SS. 287-302; Муродалиев Р., Мирсоатова С. Сўнгат мазор-қўрғони топилмаси ва узангининг тарихдаги аҳамияти // Ўтмишга назар. Том 4. № 9. 2021. – Б. 34-43.

⁵⁶ Горбунова Н. Г., Гамбург Б. З. Ак-Тамский могильник // КСИИМК, Вып. 69. 1957. – С. 78-90.

⁵⁷ Литвинский Б. А. Орудия труда и утварь из могильников Западной Ферганы. – Москва. 1978. – С. 129-131.

⁵⁸ Агзамходжаев Т. Тюябугузские наусы // ИМКУ, Вып. 3. – Ташкент. 1962. – С. 75.

⁵⁹ Литвинский Б. А. Орудия труда ... 1978. – С. 133.

bobning «**Siyosiy jarayonlar**» nomli birinchi paragrafida Chochning siyosiy-ma'muriy boshqaruvi tarixshunosligi masalasi tahlil qilingan.

Choch tarixiga to'xtalgan olimlarning aksariyati, bu davrda vohani mahalliy (asosan, sug'diy) sulolalar boshqarganligi, Turk xoqonligining Chochdagi boshqaruvi nisbiy bo'lib, bu jihatdan mintaqadagi boshqa voha davlatlar bilan deyarli bir xil bo'lganligi haqida hamfikrdirlar. Ular orasida keng tarqalgan fikrga ko'ra, Chochni ham o'z ichiga olgan Amudaryo – Sirdaryo oralig'i va unga tutash hududlardagi mahalliy davlatlarning boshqaruv ishlariga Turk xoqonligi deyarli aralashmagan, asosan o'lpon olib turish bilan cheklangan. Choch boshqaruvchilarining etnik tarkibida o'zgarish unchalik darajada sezilmagan. Umuman olganda, xoqonlikning vassallar boshqaruvida muayyan bir tartib yo'lga qo'yilmagan⁶⁰.

Turk xoqonligi davrida, ya'ni qariyb 150 yil davomida Choch vohasida faoliyat yuritgan boshqaruvchi toifa vakillarining ism va unvonlari bilan yozma manbalar, xususan, xitoy yilnomalari va qisman boshqa tillardagi manbalar asosida tanishib chiqilganda 10 nafar hukmdor haqida ma'lumotlar saqlangan.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafi «**Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar**» deb nomlanadi. Unda Turk xoqonligi davrida Choch vohasining kechgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar arxeologik manbalar va ko'chmanchilar tarixiga oid asarlar bilan qiyosiy tahlil qilingan holda bayon etilgan.

Ko'chmanchilar ijtimoiy hayoti masalasida, XIX asr 80-yillaridan buyon qator tadqiqotchilar tomonidan turli xil fikrlar ilgari surilgan. Ularga ko'ra, ko'chmanchilar jamiyati tuzilishida ijtimoiy-iqtisodiy differentsiatsiya (tabaqalanish) mavjud bo'lib, ularning jamiyati urug'-qabila tuzumining yuqori cho'qqisi – harbiy demokratiya ko'rinishida bo'lganligi, keyingi davrdagi jamiyat tuzilishida ham harbiy demokratiya va ilk feodal-patriarxal munosabatlar saqlanib qolganligi kabi xulosalar chiqarilgan⁶¹. Lekin, bugungacha ushbu masalada yagona ilmiy to'xtamga kelinmagan. Choch vohasida o'rganilgan mozor-qo'rg'onlar tuzilishi, marhumlar yoniga ashyoviy manbalarning turlicha (ko'p yoki kam) qo'yilishi hamda yozma manbalar tahlilidan, jamiyat tuzilishi ilk yer egaligining – patriarxal ko'rinishida bo'lib, ijtimoiy munosabatlar ancha taraqqiy etganligini anglatadi.

Olib borilgan dala tadqiqotlari Choch vohasi chorvadorlarining qishlovlari, chorva qishlashi va boqilishiga qulay joylarda – suv manbalari mavjud bo'lgan tog' vodiylari hamda qishning qahraton kunlaridan tabiiy himoyalangan manzillar bo'ylab joylashganligini ko'rsatmoqda. Chorvoq hududi esa bunga yaqqol misol bo'ladi. Qishlov (qishloqlar) va yaylovlar orasidagi masofa odatda katta hududlarni (70-75, 200-250 km) o'z ichiga olgan⁶². Ustrushonada esa mozor-qo'rg'onlar joylashishiga nisbat berib aytadigan bo'lsak, qishlovlar masofasi yaqin biroq,

⁶⁰ Gibb H. Orta Asya'da Arap fithohati. – Istanbul, 1930. – S. 4 – 9; Хидоятлов Г.А. Менинг жонажон тарихим. – Тошкент, 1992. – Б. 76 – 78.

⁶¹ Мамбетуллаев М. М. Кочевники Приаралья и их этнокультурные связи с Хорезмом // Культура номадов Центральной Азии. – Самарканд: 2008. – С.130., Хазанов А.М. Социальная история скифов. – Москва. 1975. – С. 265.

⁶² Мавлонов Ў. М. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiya. 2008. – Б. 83.

uning chegarasi bo'ylab joylashgan yaylovlar 50-100 km gacha tog' va cho'l yo'nalishi tomon ochiq holda joylashgan⁶³. Choch hududida ham ayni shunday holat kuzatiladi. Bu esa aholi sonining oshishi va yangi ko'chmanchi jamoalar ta'siri bo'lishi ham mumkin.

Aytish joizki, Choch – nafaqat ko'chmanchi, o'troq xo'jalik yurituvchi aholining faol aloqalari uchun qulay geografik nuqtada joylashgan bo'lib, qadimgi davrlardanoq O'rta Osiyo xalqlarining etnomadaniy va ijtimoiy-iqtisodiy aloqalari rivojida o'ziga xos «retranslyator» vazifasini bajargan. Bu albatta, keng ko'lamdagi savdo-iqtisodiy aloqalar va ijtimoiy munosabatlarga bog'liq edi. Xoqonlik davrida Choch hududi bo'ylab o'tuvchi asosiy karvon yo'llari xalqaro, shaharlararo va ichki ahamiyatga ega yo'llar bo'lib, ular ichida Chochni Sug'd bilan bog'lovchi yo'llar katta ahamiyatga ega edi. Yozma va arxeologik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilgan Y. F. Buryakov, Choch-Sug'd savdo yo'llari yo'nalishlariga ko'pgina aniqliklar kiritadi. Unga ko'ra, ilk o'rta asrlarga Choch-Sug'd yo'llarning ikki yo'nalishi mavjud bo'lgan.

Xoqonlik tarkibida bo'lgan davrda Choch bir tomondan atrofidagi qo'shnilari – Farg'ona, Ustrushona, Sug'd bilan iqtisodiy aloqalarni yo'lga qo'yadi. Uning savdo jamoalari Xitoy, Oltoy, Janubiy Sibir, O'rxun vodiysi (Mo'g'uliston), Volga-Urolbo'yi o'lkalariga borib, savdo-sotiq ishlarini jonlantiradi. Ayniqsa, Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i hududlaridan o'tishi hamda bevosita xoqonlik tomonidan bu tarmoqning xavfsizligini ta'minlanishi, Chochni ijtimoiy-iqtisodiy o'sish uchun zamin yaratib beradi.

«**Diniy qarashlar**» nomli uchinchi paragrafda qadimgi turklarning diniy dunyoqarashi, Choch vohasi aholisining diniy e'tiqodlari va unda ot kultining o'rni haqida so'z yuritilgan.

Qadimgi turklarning dini haqida eng qadimgi Xitoy yilnomalari «Vey-shu» va «Suy-shu» da qayd etilgan bo'lib, «Vey-shu»da turklarning diniy udum va marosimlari haqida shunday ma'lumotlar mavjud: *«ular (ya'ni, qadimgi turklar – R.M.) ruhlarga topinganlar, sehrgarlarga ishonganlar. ... Xoqon qarorgohiga sharq tomondan kirilgan, bu bilan kun chiqish tarafga hurmat ma'nosi ifodalangan, ayni paytda quyoshga sig'inishni ham bildirgan; har yili xoqon o'z amaldorlari bilan g'orga borib, ota-bobolari ruhiga qurbonlik keltirgan; har beshinchi oyning o'rta o'n kunligida xoqon yaqinlarini yig'ib, daryo bo'yiga borgan, osmon ruhiga qurbonlik keltirgan. ... «Elning panohgoh ruhi» (xitoycha Bodin-inli) deb atalgan tog'ni muqaddas bilishgan»⁶⁴.*

Bu kabi tog' kulti dunyoning turli xalqlarida mavjud bo'lib, yunonlarda – Olimp, falastinliklarda – Sinay, hindlarda – Himolay tog'lariga topinish va uning cho'qqisida xudolarning yashashi borasidagi diniy dunyoqarash amaliyotda kuzatilgan. Bu topinch Mo'g'uliston, Tibet va oltoyliklarda saqlanib qolgan. Oltoyliklarda odatga ko'ra, tog' «ilohi»ning sharafiga dovon va daralar kechuvlarida toshlardan uyum-tepalalar qilingan, ya'ni u yerdan o'tgan har kishi

⁶³ Тошбоев Ф. Э. Уструшона чорвадорларининг антик давр маданияти / Т.ф.ф.д. (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. – Самарқанд. 2017. – Б. 24.

⁶⁴ Бичурин И. Я. Собрание сведений о народах, обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. 1. – Москва; Ленинград. 1950. – С. 230-231.

uyum ustiga tosh tashlab o'tgan. Bunday joylarda tog' «iloh»ini bezovta qilinmasligi uchun baland ovozda gaplashish, baqirish va hatto qo'shiq aytish ham mumkin bo'lmagan⁶⁵.

Shuni ham qayd etish kerakki, animizm ko'pchilik turkiy qabilalar uchun ilk umumiy diniy tasavvurlar majmui bo'lgan. Animizmning mohiyati shundaki, ibtidoiy davrda odamlar, hamma narsaning ruhi bor, deb ishongan. Shunga muvofiq, tabiat hodisalari, turli ofatlarga jonli deb qaralgan. Xalq ertaklarida shamol yoki tog' odamlarday harakat qiladi, odamzodga yordam beradi yoki unga qarshilik ko'rsatadi, deyilgan. Mazkur hodisalar ham animizmning bir ko'rinishidir. Shuningdek, turk qabilalari va urug'lari biror jonzotga topinib, uni o'zining homiysi deb bilgan. Aytish mumkinki, bu kabi totemistik qarash ham yuqoridagilari singari turk-mo'g'ul qabilalarining deyarli barchasi uchun xos bo'lgan.

Choch vohasida ham diniy qarashlar borasida turli-tumanlik mavjud bo'lgan. Ayniqsa, ilk o'rta asrlarga kelib bu xilma-xillik ortadi. Ayni damda, zardushtiylik dini keng quloqch yoya boshlaydi va uning belgilari ko'mish udumlarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Shuni ham aytish joizki, zardushtiylik dunyo dini darajasida bo'lmagan va eroniy tilli hududdan tashqariga chiqmagan bo'lsa-da, uning g'oya va udumlari boshqa dinlarga, ayniqsa, moniylikka katta ta'sir ko'rsatgan⁶⁶. Choch vohasining deyarli barcha qismlarida mazkur dinning g'oyaviy an'analari asosida dafn amaliyotlari o'tkazilganligini kuzatish mumkin.

Ko'mish udumlarini o'rganish, o'sha davr odamlarining dunyoqarashi va e'tiqodi rivojlanishidagi ba'zi arxaik bosqichlarni ma'lum darajada qayta tiklashga yordam beradi. Arxeologik manbalar va tarixiy ma'lumotlarga ko'ra, O'rta Osiyoda arablar istilosidan oldingi davrda, ya'ni, ilk o'rta asrlardagi Turk xoqonligi hukmronligi kezlarda turli dinlar va diniy e'tiqodlardan kelib chiqqan holda ko'mish udumlari amalga oshirilgan. Shu bilan birga, dafn inshootlari ham qadimgi dinlar va diniy topinchlar asosida barpo etilgan. Mazkur masalada kishilarning ijtimoiy mavqei ham alohida o'rin tutgan bo'lishi mumkin.

Tadqiqotchilarga ko'ra, balbalga topinish va ular oldida turli marosimlarni o'tkazish ham ajdodlar ruhiga sig'inish bilan bog'liq⁶⁷. Aytish mumkinki, balballarni o'rganish turkiy xalqlarning ijtimoiy tuzumi, urf-odatlarini, san'ati, tarixi kabi masalalarni tushunishda katta yordam beradi. Balballar asosan VI–VIII asrlarda, ba'zi yerlarda XII asrgacha rasm bo'lgan. “Balbal” so'zi turkiy “bobo” so'zidan kelib chiqqan bo'lib, “ota” yoki “ajdod” ma'nosini bildiradi. Balballar qabrlar, shuningdek, maxsus tepaliklarga o'rnatilgan. Ular turli o'lchamlarda bo'lib, balandligi 1,5 metrdan 4 metrgacha bo'ladi. Asosan erkak, ayrim hollarda ayollar ko'rinishida bo'lgan tosh sanamlar, odatda, qo'lida idish yoki qurol

⁶⁵ Конунов А. А. Отражение культа гор в героических сказаниях // Мировоззрение населения Южной Сибири и Центральной Азии в исторической ретроспективе. Вып. IV. – Барнаул. 2010. – С. 335-336.

⁶⁶ Sunderman W. Zoroastrian motifs in non-Zoroastrian traditions // Journal of the Royal Asiatic Society. 3rd series. Vol. 18, part 2. – London. 2008. – P. 155-166.

⁶⁷ Шер Я. А. Каменные изваяния Семиречья. – Москва; Ленинград: Изд-во «Наука». 1966. – С. 73.

ushlagan tarzda tasvirlanadi⁶⁸. Aytish mumkinki, Choch hududi ham qadimgi turklar davriga oid balballar aniqlangan hududlar sirasiga kiradi.

Bugungi kunda O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida saqlanayotgan Toshkent viloyati hududidan topilgan 3 dona balballar mavjud.

Ot kulti – ko‘chmanchi xalqlar ma‘naviy madaniyatida, milliy udum va e‘tiqodlarida, folklor va tasviriy san‘atida muhim o‘rin egallaydi⁶⁹. Ot – jangchining dono maslahatchisi va safdoshi, folchisi va tabibidir. Oltoyliklar e‘tiqodida bugungi kungacha, ot egasiga narigi dunyoda ham hamroh bo‘lishi kerakligi borasidagi qadimgi ildizlarga ega dunyoqarash saqlanib qolgan.

O‘rta Osiyo hududida ot kulti bilan bog‘liq ko‘mish udumi “ilk ko‘chmachilar” davriga borib taqaladi⁷⁰. Milodiy yil hisobining boshlanishi arafasida esa qabrlarda “chavandoz holatida” dafn etish yoki otning to‘shi va boshini qabr tortig‘i sifatida qo‘yish odati vujudga kela boshlaydi⁷¹. Toshkent viloyatining Piskent tumanida joylashgan Murotali mozor-qo‘rg‘onidan aniqlangan katakomba tipidagi qabrda mayit yonida otning to‘sh qismi va yugan qismlari aniqlangan⁷². Ayni shu davrga oid yana bir ot boshi ko‘milgan kenotaf qabr Jizzax viloyatining G‘allaorol tumanida joylashgan Chayonli mozor-qo‘rg‘onidan aniqlangan⁷³.

Qadimgi turklar otni gapira oladigan va ucha oladigan jonzot deb tushunishgan. Kundalik hayotda muhim o‘rin egallagan ot, keyinchalik muqaddas topincha aylangan. Turkiy xalqlar qadimdan o‘zlarini otlarsiz tasavvur qila olmaganlar. Ularning odatiga ko‘ra, jangchini suyukli ot hamrohligida dafn qilish kerak edi. Agar qarindoshlarning bunday imkoniyati bo‘lmasa, qabrga ot anjomlari qo‘yilgan. Bundan tashqari, qadimgi turklar orasida otlar qurbonlik qilish uchun ham mo‘ljallangan. Bu qurbonlikning mohiyati – Tangriga muhabbat ko‘rsatish va rahm-shafqat so‘rashdan iborat edi. Qadimgi massagetlar ham eng buyuk va eng tezkor xudo – Quyoshga, «eng tezkor hayvon – otni qurbonlik keltirganlar»⁷⁴.

Qadim zamonlardan ko‘plab xalqlarda jangchini xotini bilan, uy-ro‘zg‘or buyumlari va oziq-ovqat bilan dafn etish odati bo‘lgan. Bu marosimlar animizm bilan bog‘liq bo‘lib, inson ruhi narigi dunyoda yashashi haqidagi g‘oyalarni aks ettiradi. Odamni oti bilan birga dafn etish odati mil. avv. VIII-VII asrlardagi skiflar

⁶⁸ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Том II. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” давлат илмий нашриёти. 2001. – Б. 131.

⁶⁹ Потапов Л. П. Конь в верованиях и эпосе народов Саяно-Алтая // Фольклор и этнография. Связи фольклора с древними преданиями и обрядами. – Ленинград. 1977. – С. 164. (164-178).

⁷⁰ Кузьмина Е. Е. Кон в религии и искусстве саков и скифов. – М.: 1977. – Б. 69; Итина М. А. История степных племен южного Приаралья. Наука, М., 1977. – С. 128.

⁷¹ Вайнберг Б. И., Левина Л. М. Низовья Сырдарьи в древности. Выпуск I. Чирикратская культура. Москва, 1993. – С. 38; Обельченко О. В. Культура античного Согда (по археологическим данным VII в. до н. э. – VII в. н. э.). – Москва: “Наука”. 1992. – С. 63-89. (254 с.)

⁷² Дресвянская Г. Я. Типы захоронений курганного могильника у к. Актам (Пскентский район) // Материалы по археологии. Сб. науч. трудов ТашГУ, № 707. – Ташкент. 1983. – С. 27; Богомолов Г. И. Развитие погребальных сооружений раннесредневекового Чача // Ўзбекистон тарихи моддий маданият ва ёзма манбаларда. – Тошкент: “Фан”. 2005. – С. 187-196.

⁷³ Тошбоев Ф. Чаёдли мазорқўрғонидаги от билан боғлиқ дафн маросимлари хақида // “Евроосиё халқлари маданият мероси: замонавий тадқиқотлар, муаммо ва ўрганиш усуллари” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция материаллари. – Жиззах. 2022. – Б. 128-132.

⁷⁴ Геродот. История в девяти книгах // Перевод, примечания Г.А. Стратановского. – Ленинград, 1972. – С. 79.

davridan boshlab keng tarqalgan. Turk olimi Osman Turan «Marhumni ot va ot anjomlari bilan dafn qilish sababi qadimgi turklarning marhum jannatga otda boradi, degan e'tiqodidadir»⁷⁵, deb qayd etgan edi. Shuni ham aytish mumkinki, «narigi dunyo»ga borishda asosiy vositachi bo'lgan otni anjomlari bilan qabrga qo'yilishi diniy tasavvurlarni boyitibgina qolmasdan, o'sha davr kishilarining estetik olami, hunarmandchiligi, kasblari haqida ham qiziqarli ma'lumotlar beradi.

Chorvadorlar diniy dunyoqarashida o'ziga xos jihatlar bo'lib, Choch hududi aholisida ham bunday belgilar kuzatiladi. Vohaga kirib kelgan madaniy-diniy yangiliklar ko'chmanchi chorvador aholiga ham ta'sir qilmay qolmadi. O'z navbatida sharqdan kirib kelgan ko'chmanchilarning dafn etish bilan bog'liq udumlari Chochning tog'li tegrallarida yangicha amaliyotlar qo'llana boshlanishiga turtki bo'ldi. Bunda ot kulti bilan bog'liq diniy qarashlar alohida ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

Sirdaryoning o'rta oqimidagi tekislik va tog'li hududlarni qamrab olgan Choch vohasi tarixiy-geografik jihatdan chorvachilik (yaylov chorvachiligi) uchun har tomonlama qulayligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, mo'tadil iqlimi va tabiiy resurslarga boyligi bosqinchi xalqlar diqqatini tortibgina qolmasdan, turli chorvador xalqlar tomonidan strategik muhim hudud sifatida o'zlashtirilganini tasdiqlaydi.

Ilk o'rta asrlarda Choch o'lkasi hisoblangan Toshkent vohasining Chirchiq va Ohangaron havzalari hamda Sirdaryoning o'rta oqimi o'ng sohilida saqlangan qadimgi ko'chmanchi chorvador jamoalarga tegishli madaniy-arxeologik majmualar ilmiy jihatdan tadqiq etilgan va bu mavzu bo'yicha boy ilmiy adabiyotlar yaratilgan. Mazkur tadqiqotda esa Choch vohasining Turk xoqonligi davriga oid chorvador madaniyati arxeologiyasini ilk bor alohida tadqiqot mavzusi sifatida belgilab olindi.

Turk xoqonligi davrida Choch vohasiga xos bo'lgan moddiy madaniyat yangi komponentlar asosida boyib borgani aniqlanib, bu borada So'ngak qabristoni o'ziga xos yodgorlik sifatida muhim o'rin tutadi. Bundan tashqari, mazkur yodgorlik hududidan topilgan moddiy ashyolar ilk o'rta asrlar davri xususiyatini aks ettirib, chorva bilan bog'liq hayot tarzining Choch vohasining tog'li tegrallarida ustuvor bo'lganligini ko'rsatadi.

So'ngak qabristonidagi qabrlarning tuzilishi, ko'mish udumi, «qabr tortiq»larining soddaligi va kamligi – kishilar diniy dunyoqarashining o'zgarishi yoki ijtimoiy holatini o'zida aks ettiradi. So'ngakda aniqlangan katakomba tipidagi qabrlar hudud aholisining Choch vohasi uchun qadimgi davrlardan buyon xos bo'lgan an'anaviy ko'mish udumini chorvadorlar madaniyatida saqlanib qolganligini o'zida aks ettiradi hamda Turk xoqonligi davri mahalliy chorvadorlariga aloqador yodgorlik sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Qabr «tortiq»lari insonlar hayoti davomida foydalanilgan va vafotidan keyin «marhumlar olami»da unga yana kerak bo'ladigan vositalar deb hisoblangan. Shuningdek, u olamga yetgunga qadar tanovul qilish mumkin bo'lgan taomlar

⁷⁵ Osman Turan. Turk cihan hakimiyeti mefkuresi tarihi. Cilt 1. – Istanbul. 1969. – S. 51.

qo'yilganligi ko'chmanchilar dunyoqarashida eng qadimiy diniy tasavvurlar o'z xususiyatini o'zida saqlaganligi uni tabiat kuchlari bilan bog'liqligini anglatadi.

Paleoantropologik o'rganishlar natijasida qabristondan qazib olingan mayitlarning 60 % erkaklar ekanligi, ularning 70 % 20-50 yosh oralig'ida bo'lganligi, bitta mayitning bosh chanog'ida halqali deformatsiya borligi aniqlangan. Bu tahlillar milodning boshlarida O'rta Osiyo hududida ko'p uchraydigan bosh chanoq sun'iy deformatsiyasining ilk o'rta asrlar davrida ham davom etganligini ko'rsatadi.

So'ngak qabristonidan aniqlangan arxeologik artefaktlar xom ashyosiga qarab sopol buyumlar, temir buyumlar, suyak va tosh buyumlarga ajratildi. Ular, o'z navbatida, vazifasiga ko'ra yana tasniflab chiqildi. Qayd etish kerakki, Chorvoq havzasi tabiiy joylashuvining qulayliklari va foydali qazilmalarga boyligi uchun qadimgi turklar qiziqish doirasidagi muhim strategik hudud va metall xom ashyosi mavjud sanoqli joylar sirasiga kiradi. So'ngak qabristoni esa xoqonlik tarkibida bo'lgan, ko'chmanchi va qo'nar-ko'char aholi tomonidan foydalanilgan yodgorlik sanaladi. Bu yerdan aniqlangan S-ko'rinishidagi qo'sh qantarmali suvluq va uzangi kabi ot anjomlari VII-VIII asrlarda Mo'g'ulistondan O'rta Osiyogacha bo'lgan hududlarda keng qo'llanilgan.

Maishiy xarakterdagi va o'yin buyumlari bo'lgan suyak buyumlar o'sha davr kishilarining ijtimoiy faoliyati va turmush yo'sinini aksi sifatida muhim ahamiyatga ega. Ta'kidlash joizki, So'ngak qabristonidan aniqlangan «tortiq» buyumlar Choch hududida yashagan o'sha davr chorvadorlarining siyosiy, ijtimoiy va madaniy faoliyatini aks ettirib, uning chekka qismlari ham madaniy aloqalarda faol bo'lganini namoyon etadi.

O'rganilgan qabristondagi ashyoviy manbalar Turk xoqonligi davrida Choch vohasi chorvador xalqlari jamiyatida ijtimoiy munosabatlar jadallashganligini ko'rsatadi. Bu davrda ko'chmanchilarning kirib kelishi Choch hududida ijtimoiy-siyosiy munosabatlarni yanada rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etgan. Bu munosabatlar asosidagi boshqaruv tartiblarida ham chorvadorlarga xos an'analar ulkan hududlarni yagona tizimga qamrab, tarqoq o'lkalarni birlashtirishga xizmat qilgan.

Ilk o'rta asrlarda Choch hududida o'ziga xos madaniyat shakllana boshlaydi. Bu vaqtda, vohada shahar va qishloqlar qurilishi jadallashadi. Shubhasiz, ko'chmanchilarning aksariyati uning dasht bilan chegaradosh va tog'li tegrallarida chorvachilik bilan kun kechirish davom etadi. Chochning markaziy voha qismi esa ularni O'rta Osiyoning boshqa hududlari bilan madaniy va iqtisodiy aloqalarida retranslyator bo'lib xizmat qiladi. Turk xoqonligiga bo'ysundirilgan Choch davlati hududidagi Chirchiq-Ohangaron vodiysi va Janubiy Qozog'istondagi ayrim viloyatlarni turklarga aloqador hukmron tabaqa vakillari idora qilganligini hisobga olganda, markazga bo'ysunmaslikka harakat qilingani tez-tez uchraydigan va ko'chmanchilar uchun xos bo'lgan holat deyish mumkin.

Choch vohasida tig'iz siyosiy va ijtimoiy jarayonlar sodir bo'lib, asrlar davomida ko'chmanchi jamoalar mahalliylik va sedentarizatsiya jarayoniga tortilgan. Bunda Turk xoqonligi hokimiyatining o'rnatilishi jarayonni yangi bosqichga olib chiqqan. Mahalliy aholi bilan yaqinlashuv natijasida, ko'plab

tadqiqotchilar qayd etgan sugʻd-turk simbiozi vujudga kelgan. Bu esa oʻz navbatida voha iqtisodiy taraqqiyotiga sabab boʻlgan.

Choch vohasi boʻyicha yozma manbalar tahlili, oʻrganilgan qabrlar tuzilishi, marhumlar yoniga ashyoviy manbalarning turli miqdorda qoʻyilishi hamda ularni shahar va qishloq makonlari bilan taqqoslab oʻrganilishi ilk oʻrta asrlarda Choch vohasi chorvadorlari jamiyatida ijtimoiy munosabatlar jadallashganligini koʻrsatadi. Bu davrda yangi koʻchmanchilar toʻlqinini voha hududiga kirib kelishi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar yanada shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Boshqaruv tartibi ulkan hududlarni yagona tizimga birlashtirib, tarqoq xalqlarni jipslashuviga xizmat qiladi.

Choch hududining shaharlashgan qismlarida zardushtiylik, xristianlik, moniylik kabi nisbatan aniq belgilangan amallarga ega dinlarning tarqalishi natijasida dafn marosimlari ham ushbu dinlar doirasida oʻtkazilib, dafn inshootlarida oʻzgarishlar kuzatiladi. Chorvadorlar turmushiga taʼsir etgan holda, Chochning togʻli tegralarida ham diniy konfessiyalarning baʼzi elementar taʼsiri paydo boʻla boshladi. Shu bilan birga, periferiya hududlarda katakomba qabrlarga dafn etish tartibi davom etadi. Aytish mumkinki, dafn marosimlaridagi ayrim yangiliklar kishilar diniy dunyoqarashida sodir boʻla boshlagan oʻzgarishlarning aksi sanaladi.

Chorvadorlar diniy dunyoqarashida oʻziga xos jihatlar boʻlib, Choch hududi aholisida ham bunday belgilar kuzatiladi. Vohaga kirib kelgan madaniy-diniy yangiliklar chorvador aholiga ham taʼsir qilmay qolmadi. Oʻz navbatida, sharqdan kirib kelgan koʻchmanchilarning dafn etish bilan bogʻliq udumlari Chochning togʻli tegralarida yangicha amaliyotlar qoʻllana boshlanishiga turtki boʻldi. Bunda ot kulti bilan bogʻliq diniy qarashlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari yuzasidan quyidagi **taklif va tavsiyalar** ilgari suriladi:

1. Mazkur tadqiqot natijalari asosida Oʻzbekiston tarixining qadimgi va oʻrta asrlar davri boʻyicha chorvadorlar madaniyati va uning oʻtroq madaniyatga taʼsiri boʻyicha monografiya, darslik va oʻquv qoʻllanmalar tayyorlash;

2. Turk xoqonligi davriga oid Soʻngak qabristonining arxeologik qazishmalari jarayonida aniqlangan topilmalardan muzey ekspozitsiyalarini tashkil etish uchun foydalanish mumkin;

3. Toshkent vohasi aholisining koʻmish udumlari, dafn inshootlari va ularning tarixshunosligiga oid masalalar yetarlicha oʻrganilmaganligidan kelib chiqib, ushbu mavzu boʻyicha tadqiqotlarni davom ettirish mumkin.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.02/02.30.12.2019. Tar.45.01. ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ ЦЕНТРЕ АРХЕОЛОГИИ**

НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦЕНТР АРХЕОЛОГИИ

МУРОДАЛИЕВ РАХМОАЛИ ХАЙДАРАЛИ УГЛИ

**КУЛЬТУРА СКОТОВОДОВ ЧАЧСКОГО ОАЗИСА В ЭПОХУ
ТЮРКСКОГО КАГАНАТА**

**07.00.06 – Археология
(исторические науки)**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам

Ташкент – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером В2023.1.PHD/Тар818.

Диссертация выполнена в Национальном центре археологии.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.archaeology.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNET» (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Максудов Фарход Алижанович
доктор исторических наук

Официальные оппоненты:

Аскарлов Ахмадали Аскарлович
доктор исторических наук, профессор,
академик АН РУз

Пардаев Мухторкул Хасанович
кандидат исторических наук, старший научный
сотрудник

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится «5» мая 2023 года в 14:00 часов на заседании Научного совета DSc.02/02.30.12.2019.TAR.45.01. по присуждению учёных степеней доктор исторических наук (DSc) и доктор философии (PhD) при Национальном центре археологии АН Республики Узбекистан (Адрес: 100170, город Ташкент, улица Мирзо Улугбека, дом 81). Тел.: (99871) 262-64-62, e-mail: uzarchae@academy.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Национального центра археологии и Фундаментальной библиотеке Академии наук Республики Узбекистан (зарегистрирована за № 25). (Адрес: 100170, г. Ташкент, Мирзо-Улугбекский район, ул. Зиёлилар, 13. Тел.: (99871) 262-74-58; Факс: (99871) 262-34-41).

Автореферат диссертации разослан «18» 04 2023 года
(реестр протокола рассылки № 1 от «18» 04 2023 года)



Р.Х.Сулейманов
Председатель Научного совета
по присуждению учёных
степеней, д.и.н., профессор

Д.Х.Муродова
Ученый секретарь Научного
совета по присуждению
учёных степеней, к.и.н.,
старший научный сотрудник

А.А.Анарбаев
Председатель научного
семинара при Научном совете
по присуждению учёных
степеней, д.и.н., профессор.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В условиях ускорения культурной интеграции, происходящей в мире в результате глобализации, большое внимание уделяется вопросам природного и социального воздействия на развитие человечества. Если обратиться к истории человеческого общества, то «разнообразие природных условий», проявляющееся в климате, водных ресурсах, почвенно-растительном покрове, ландшафтных зонах и т. д., в основном определяет виды и количество форм материального производства, хозяйственные и культурные типы, а также производственные методы. В связи с этим Чач (Ташкентский оазис) также является одним из очагов древней цивилизации, внесшим большой вклад в развитие общечеловеческих ценностей в центральноазиатском регионе, и его развитие было связано с прошлым народов региона.

На сегодняшний день многие научные достижения по истории и культуре народов региона осуществляются благодаря тому, что ведутся работы по специальным проектам, направленным на изучение истории и археологии Центральной Азии в ведущих научных центрах за рубежом. Тем не менее, кочевая культура края не освещена полностью до сих пор. Историко-культурный район Чач, расположенный в зоне столкновения интересов политических сил, также занимал важное место в международных отношениях. С этой точки зрения, празднование 2200-летия города Ташкента в 2009 году и проведение международной конференции, посвященной сохранению и дальнейшему развитию истории и культурного наследия народов Ташкентского оазиса, показывает, насколько высокое место Чачский регион занимает в общечеловеческой цивилизации.

В археологии культуру скотоводов часто изучают посредством раскопок могильников, а выводы о материальном и духовном мировоззрении людей делают на основании погребальных обрядов и могильного инвентаря. В связи с этим Чачский оазис является одним из важных регионов, и введение в научный оборот археологических сведений по его скотоводческой культуре раннего средневековья будет способствовать раскрытию неизученных страниц истории Узбекистана. В последние годы в горном районе Ташкентской области на юго-восточной окраине Чарвакского водохранилища был открыт древний Сунгакский могильник и исследованы культурные комплексы скотоводов, относящиеся к периоду Тюркского каганата. С 70-х годов прошлого века по настоящее время в разрушенном от воды кургане-могильнике, исследовано более 40 могил. Тем самым вносится ясность в ряд проблемных вопросов истории и археологии региона.

Данная диссертация в определенной степени может способствовать реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан № 4947 от 7 февраля 2017 г. «О мерах стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», № 2789 от 17 февраля 2017 г. «Меры по дальнейшему совершенствованию деятельности Академии наук,

организации, руководства и финансирования научно-исследовательских работ», Постановлениях Президента Республики Узбекистан № 4068 от 19 декабря 2018 г. «О мерах по коренному совершенствованию деятельности в области охраны объектов материального и культурного наследия», № 5181 от 16 января 2018 г. «О совершенствовании охраны и использования материального, культурного и археологического наследия объектов», № 792 от 21 сентября 2019 г. «О коренном совершенствовании археологических исследований», № 6097 от 29 октября 2020 г. «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года»¹.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-нравственном развитии информационного общества и демократического государства».

